

O'ZBEK AN'ANAVIY MUSIQASI XUSUSIYATLARI

Ramazonova O'g'iloy Xolmurodovna
Buxoro davlat Universiteti "Musiqa ijrochiligi va madaniyat"
kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'zbek xalqining musiqa madaniyati, mumtoz musiqasi, o'tmishdagi bastakorlik an'analari, maqom ijrochiligi uslublari va xonandalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: musiqa madaniyati, an'anaviy musiqa, maqom, ijrochilik uslublari.

Аннотация: В статье рассматривается музыкальная культура узбекского народа, классическая музыка, прошлые композиционные традиции, обсуждаются методы исполнения маком и их исполнители.

Ключевые слова: музыкальная культура, традиционная музыка, маком, стили исполнения.

O'zbek xalqining musiqa madaniyati ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, u ko'pchilik sozanda va xonandalar avlodining faoliyatida qaror topgan an'anaviy musiqa san'ati ekanligi haqida guvohlik beradi. An'anaviy musiqa — bu badiiy jarayon bo'lib, unga xalq tomonidan yaratilgan, asrlar osha bizgacha yetib kelgan xalq musiqa ijodi yoki musiqa folklori va yetuk sozanda-bastakorlar tomonidan ijod etilgan mumtoz musiqasi kiradi. Bu ijodiyot namunalari og'zaki an'anada saqlanib, sayqal topib, barkamol musiqa asari sifatida rivojlanib kelmoqda.

O'zbek mumtoz musiqasi o'tmishdan o'zining teran ma'noga ega ekanligi, murakkabu mukammalligi va beqiyos an'analarni o'zida mujassam etganligi bilan o'zga xalqlar musiqasidan ajralib turadi. Ushbu musiqa ijodiyotida xalqimizning o'tmish an'analari, boy va teran ma'nolarga asoslangan tarixi muhrlangan. Ularning har bir namunasi tarixdan bir sadodir. Binobarin, ularni qanchalik o'rganmaylik, qanchalik sirlaridan voqif bo'lmaylik, shunchalik yangi qirralari ochilib, o'zining benazir xususiyatlarini namoyon etadi. Shu nuqtai nazardan o'zbek mumtoz musiqasini o'rganish, ularda mujassam etilgan falsafiy g'oyalarni anglash, tarix sadolarini uqib olish, ularning siru sinoatlarini idrok etish uchun bugungi kunda imkoniyatlar yetarli.

Ma'lumki, o'zbek an'anaviy musiqasi o'tmishdan ikki yo'naliish, ya'ni bir-biridan paydo bo'luvchi, bir-birini to'ldiruvchi, shu bilan birga o'zining alohida xususiyatlari va sifatlariga ega bo'lgan yo'naliishlardan tashkil topgan. Shulardan biri, hayotiy mezon bilan bog'liq musiqa folklori bo'lsa, ikkinchisi, ana shu jonli jarayonning ijodkorlar tafakkuri bilan to'ldirilgan mumtoz musiqa yo'naliishidir. Shakllanish va ravnaqi yo'lida har ikki yo'naliish o'zining ichki qonuniyatları, shaklu shamoili, ishlash uslubi, mavqeい, joyi, vaqtı, ijro an'analari va shu kabi qator xususiyatlarga ega bo'lgan. Har ikki yo'naliishda ham umumiyy hisoblangan milliy an'analalar bilan bog'liq tomonlari bo'lgani kabi, o'z yo'naliishiga xos

uslublarni ifoda etadigan alohida jihatlari ham yo'q emas. Lekin ijodiy mezon, ijrochilik an'analari va talqin masalalarida e'tiborga loyiq o'ziga xoslik jihatlari talayginadir.

Bugungi kunda O'zbekistonda zavq bilan tinglanayotgan, maroq bilan aytيلayotgan ashula, yalla, katta ashula, doston, cholg'u kuylari va maqomlar o'zbek mumtoz musiqasining yetuk janrlari hisobланади. Xalqimiz va uning namoyandalari yaratgan ana shu ma'naviy boyliklarimiz butun o'zbek xalqi madaniy merosi, qadriyatlarining tarkibiy qismidir. Manbalarga ko'ra, professional (ustozona) san'at bizning hududlarimizda milodning birinchi asrlarida yuzaga kelgan va rivojlangan. Mumtoz musiqa xalq musiqa ijodi namunalari negizida va ijrochilik madaniyatining rivoji, keyinchalik Sharq mumtoz she'riyati shakllanishi asosida tashkil topgan. Mumtoz musiqa deganda o'zbek xalqiga mansub, uning yetuk sozanda-bastakorlari tomonidan asrlar davomida yaratilgan musiqa san'ati namunalari (aytim-ashula va cholg'u musiqalari) ko'zda tutiladi. Ushbu musiqa boshqa musiqa ijodiyoti namunalaridan bir necha o'ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi:

Maqom ijrochiligi uslublarida sheva masalasiga hamma vaqt katta e'tibor berilib kelingan, shu tufayli hofizlar ijo etish uslubida ba'zi farqlar mavjud. Buxoro va Samarqandda maqom yo'li bir turli ijo etilsa, Farg'ona vodiysida boshqacha, Xorazmda esa yana bo'lakcha uslubda ijo etiladi. Kuy tuzilishi va rivoj olishi, uning xarakterini ochib berish, kuy va so'z mutanosibligi, hanglardan ustalik bilan foydalanish va ularni kerakli joyda ishlata olish va, ayniqsa, usullarni ijo etish imkoniyatiga qarab, maqom yo'llarining doyra usuli sur'atini o'zgartira berish ijrochilik uslubida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham maqomlarni ijo etuvchi hofiz va sozandalar o'tkir didli, she'riyat qonunlarining bilimdoni, kuy va ashula yo'llarning tuzilishi, kuy harakatini bilish, peshqadam san'atkor sifatida mahalliy an'analarni saqlab, ularni rivojlantirish qoidalarini biluvchi namoyandalar bo'lishgan. Tarixda bunday bastakor, hofiz va sozandalar nomi ko'plab saqlanib qolgan (o'rta asr «musiqiy risolalarida», shoirlar ijodida, jumladan, Alisher Navoiy asarlarida, Darvish Ali Changiyning «Risolai musiqiy» sida o'sha davrlarda mashhur bo'lgan mohir san'atkorlar nomi ko'plab uchraydi).

Ustozlar maqomlarni bir butun turkum shaklida, boshidan oxirigacha yoki ularning ayrim sho'balarini ijo etib kelganlar. Hozirgi vaqtarda hofizlar maqom ashula yo'llarini yakkanavoz holda ko'proq talqin etmoqdalar. Maqomlar ijrochiligidagi yana bir an'ana — ashula yo'llari she'r matnlari yangilanib turishi. Maqom yo'llarida turli vazndagi g'azallar o'qilishi, aruz («ilmi aruz») qonun- qoidalariga e'tibor berish va usul («ilmi iquo»)lar mutanosiblida aytlishi ularni katta o'zgarishlarga olib kelgan. G'azalxonlikda «musiqiylik» deyilganda she'r talaffuz qilib o'qilganda ham, kuya tushirib ashula yo'lida aytulganda ham ravon va jozibali yangrashi lozimligini tushunish kerak. Musiqa bilan she'riyat shaklan ham mazmunan bir-biriga uzviy bog'langan holda ijo etilsa, ikkovi bir-birini mazmunan to'ldiradi va she'rdagi ta'sirchanlik oshadi.

O'tmishda bastakorlik an'analari ko'ra ashula yoki qo'shiqning kuyiga mohirona, shaklan va mazmunan uning ruhiga mos she'rlarni tanlab, maqsadga muvofiq tarzda tushira bilish juda katta san'at deb, va u bastakorlik san'atining asosiy omillaridan

hisoblangan. Maqom ijrochiligidagi ovoz imkoniyatlaridan to`g`ri foydalanish, yuksak mahoratga, xotiraga, ijo uslubi va an`analari, aynan mohir sozanda bo`lish, she`r vazni va doyra usullarini bilish talab etiladi. O`tmishda maqom ijrochilik an`analari og`zaki tarzda ustozdan shogirdga o`tib kelgan. Ota Jalol, Ota G`iyos, Usta Shodi, Qori Kamol, Abdusamad Begijon, qori Najmuddin, Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonov, Madumar Hofiz, Hamroqul qori, Erka qori, Sodirxon hofiz, Valixon ustoz, Shobarot ustoz, Ilhom hofiz, Abdurahmon Umariy, Rizqi Rajabi, Shorahim Shoumarov, Akbar Haydarov, Turg`un Karimov, Imomjon Ikromov, Abdusoat Vahobov, Maqsudxo`ja Yusupov, Ma`rufjon Toshpo`latov, Borux Zirkiyev, Matponoh Xudoyberganov, Mug`anniy (Safo Ollaberganov), Chokariy (Matyusuf Xarratov), Sheroyziy (Madrahim Yoqubov), Komiljon Otaniyozov, Hojixon Boltayev, Bola baxshi Abdullayev, Ro`zmat Jumaniyozov, Turg`un Alimatov, Orifxon Hotamov, Berta Dovidova, Barno Ishoqova, Shoqosim Shojalilov singari sozandalar, nafasi o`tkir, hofizasi zo`r xonandalar, o`zbek mumtoz musiqasining yetuk namoyandalari musiqa san`atimizni, an`anaviy ijrochilikni saqlanib, rivoj olishiga, uning ijo uslublari va an`ana- larini targ`ib etishda katta hissa ko`shib kelganlar. XX asrga kelib maqomchilikda an`anaviy va yangi, zamonaviy ijo uslublari yuzaga keldi. Bu borada maqom ansambllarining tashkil topishi, maqom ijrochilik uslublari musiqa ta`limi tizimiga og`zaki va yozma an`analarning mutanosibligida joriy etilishi muhim o`rin tutdi. 1972-yilda Toshkent davlat konservatoriyasida «Sharq musiqasi» kafedrasining ochilishi va uning faoliyati tufayli respublikamizda an`anaviy ijrochilik yangi sharoitda, tiklangan holda rivojlanib kelmoqda. 1983-yildan boshlab Toshkentda har to`rt yil ichida maqom ijrochilarini va keyinchalik maqom ansambllari Xalqaro va respublika tanlovlari o`tkazilib, yangidan-yangi iqtidorli maqom ijrochilarini kashf etilmoqda.

Hozirgi kunda ham yosh maqom ijrochilarining ko`payishi, ularning asl maqom san`atiga bo`lgan qiziqishining orttishi insonning ko`zini quvontiradi, albatta. Har bir yosh avlod vakillariga maqomlarimizni asl holaticha etkazish- bu bizning burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O`g`iloy Ramazonova. An`anaviy xonandalik va hofizlik san`ati. Pedagogik mahorat. Maxsus son. 2021. 38-40-b.
2. U.R. Kholmurodovna. FORMATION OF PUBLICISTIC PERFORMING SKILING IN SINGING. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 36-40, 2021
3. D.Yu. Ruziev. Ways Of Working ON Musical Compositions. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (01), 436- 440, 2021
4. Ro`ziyev D.Yu. Musiqiy ijrochilik mahorati. Pedagogik mahorat. 6-son, 2019. 260-263-b.
5. Ro`ziyev D.Yu. Ansambl ijrochiligidagi obrazli musiqiy tafakkurni shakllantirish. Pedagogik mahorat. Maxsus son. 2021. 11-15 bet.

6. У.Х. Рамазонова. МЖ Эсанова.Подготовка молодых певцов к ансамблевому выступлению. Наука, техника и образование,88-91, 2021.
7. Ў.Х.Рамазонова. Талабаларда маънавий-аҳлоқий тушунчаларни шакллантириш, гуруҳ билан ишлаш ва уни бошқариш тамойиллари. Scientific progress 1 (5), 2021.
8. HISTORICAL DEVELOPMENT OF STATUS. Ogiloy Kholmurodovna Ramazanova, Mahmudjon Shukurov Web of Scientist: International Scientific Research Journal.447-452 bet.
9. Formation and Development of National Musical Traditions Ogiloy Kholmurodovna Ramazanova, Gulasal Golibjon qizi Mustaqimova EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION 336-339 bet.
10. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni. Ugiloy Xolmurodovna Ramazonova, Maxliyo Jamilovna Esanova Science and Education.496-501 bet. Rajabov, T. I. (2021). O'kuvchi-yoshlarga o'zbek milliy musiqa folklori namunalari vositasida estetik tarbiya berish. Science and Education, 2(11), 1094-1103.
11. Умуррова М. Ё. THE IMPORTANCE OF USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN SPECIAL EDUCATIONAL SCHOOLS //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 22-2. – С. 24-26.
12. Yoshiyevna U. M. THE METHOD OF ORGANIZING" GROUP SINGING" IN TEACHING" MUSICAL CULTURE" IN SECONDARY SCHOOLS //Modern Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – Т. 4. – С. 271-274.
13. Rajabov T. I. ticheskaya klassifikatsiya uzbekskoy detskoy narodnoy muzыki i igr //Nauka, obrazovanie i kultura. – 2020. – №. 3 (47).
14. Rajabov, Tuxtasin Ibodovich. "ticheskaya klassifikatsiya uzbekskoy detskoy narodnoy muzыki i igr." Nauka, obrazovanie i kultura 3 (47) (2020).
15. Rajabov, D. Z., & Rajabov, T. I. (2018). Formirovanie i razvitiye uzbekskoy narodnoy liriki. In Mejdunarodnaya obrazovatelnaya deyatelnost kak faktor razvitiya i sotrudnichestva vlysshix uchebnix zavedeniy v sovremennom polikulturnom mire (pp. 207-212).
16. Rajabov T. I. USOVERSHENSTVOVANIE NAUCHNO-METODICHESKIX VOZMOJNOSTEY OBUCHENIYA BUXARSKIM DETSKIM FOLKLORNYM PESNYAM V SREDNEY OVBЩEOBRAZOVATELNOY SHKOLE //Nauka, texnika i obrazovanie. – 2021. – №. 2-2 (77). – S. 84-86.
17. Ibragim Fayzullaevich Kayumov. Xalq qo'shiqlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqiy malakasini o'stirish usullari. Scientific progress 2021/03Б.635-640.
18. XORAZM MAQOMLARINING TALABALARGA O'RGATISH USULLARI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. 324-326.
19. Formation and Development of National Musical Traditions EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION 336-339

-
20. Мустафоев Б. И. Особенности уроков музыки в общеобразовательных школах //Достижения науки и образования. – 2019. – №. 1 (42). – С. 46-48.
 21. Рузиев Д. ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ //Academy. – 2021. – №. 2 (65). – С. 62-64.
 22. Urinov S. K., Rakhmatova M. THE ROLE OF CULTURE AND ART OF UZBEKISTAN ON A GLOBAL SCALE //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 370-376.